



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTEBLARIDA MATEMATIKA O'QITISH JARAYONI ELEMETLARIAN FOYDALANISHNI XOZIRGI XOLATI

Botiraliyeva Maftuna Botirali qizi

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika
universiteti Qo'qon filali Stajor o'qituvchisi

Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.O.Mirziyoev "Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, Matematika o'qitish nazariyasi va metodikasi o'quvchilarning rivojlanishi. Umumiy o'rta talim maktablardada "Matematika" fani bo'yicha o'quv dasturi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlari: Umumiy o'rta talim maktab, matematika, metodika, pedagog

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.O.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bugungi kunda mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, uni innovatsion asosda rivojlantirish, o'z oldimizga qo'ygan ko'p qirrali va murakkab vazifalarni amalga oshirish maqsadida biz zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, har qanday vaziyatda ham ma'suliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan, intellektual salohiyatli yuksak yosh kadrlarga davlat va jamiyat boshqaruvida muhim vazifalarni ishonib topshirmoqdamiz" Aynan zamonaviy va kreativ fikrlaydigan, intellektual salohiyatli yoshlarni tarbiyalashda akademik litseylar muayyan darajada xizmat qiladi.

Umumiy o'rta talim maktablarda o'qituvchilar matematika ta'limining butun muammosini o'quvchilarga faqatgina muayyan bilim, ko'nikma va malakalar majmuyini berish bilan cheklanibgina qolmay, o'quvchilarning shaxsiy sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish vazifasi ham muhim. Ba'zi pedagoglar matematik rivojlanishni – matematika fani sohasidagi dalillar va malakalarni egallash jarayoni oqibatida o'z-o'zidan kelib chiquvchi deb hisoblaydi. O'quvchilarga matematikadan bir nechta formula, ta'rif va teoremlarni o'tib, masalalar to'plamidan bir necha yuz masalalarni yechimini topish orqali zaruriy rivojlanishni egallaydi. Bilim, ko'nikma va malakalarning mazkur miqdori kamaytirilsa, kutilgan natija va rivojlanishni ta'minlab bo'lmaydi. Bu nuqtayi nazar pedagogik jihatdan xato hisoblanadi.

Matematika o'qitish nazariyasi va metodikasi o'quvchilarning rivojlanishi, matematik tarbiyasi masalalariga borgan sari ko'proq e'tibor qaratmoqda. Bu haqda o'qitish metodikasiga nisbatan asta-sekin o'zgarib borayotgan qarashlar va shu bilan bog'liq ravishda mazkur fan nomining o'zgarishi guvohlik bermoqda: matematika metodikasi (matematikaga yo'l) – matematika didaktikasi (matematika o'qitish) – matematika pedagogikasi (matematik tarbiya). Zamonaviy umumta'lim dasturi ta'limning bosh maqsadlari qatorida "o'quvchilarning intellektual rivojlanishlari"ning ko'rsatilishi ham bejizga emas..

Matematika ta'limi jarayonida o'quvchilar shaxsini rivojlantirish masalasiga taniqli matematik, pedagog A.I.Markushevich katta e'tibor qaratgan. Uning fikriga ko'ra, maktabda matematika



ta'limining butun muammosini o'quvchilarga faqatgina muayyan bilim, ko'nikma va malakalar majmuyini berish bilan cheklash mumkin emas. Bu matematikaning umumiy ta'limdagi rolini qonuniy ravishda cheklagan bo'lar edi. Q.S.Jumaniyozovning tadqiqot ishida maktab o'quvchilarining geometrik tasavvurini rivojlantirishning metodologik asoslari, tasavvurni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, nazariy materialni va masalalar yechish jarayonida geometrik tasavvurni.

Shu tariqa, matematika o'qitishning rivojlantiruvchi funksiyasini kuchaytirishning zaruriyati va maqsadga muvofiqligi tabiiy xususiyat kasb etadi, degan xulosaga kelish mumkin. Matematika pedagogik texnologiyalarini qurishning ma'lum asoslari mavjud; ular avvalo, o'quvchilarning aqliy rivojlanishlari nazariyasi va amaliyotiga taalluqlidir. Umumiy o'rta talim maktablarda matematika ta'limi manbasi: o'quv predmeti va fanning o'zaro bog'liqligi, ta'lim maqsadi va mazmunining bog'liqligi, mazmunning tarkibi, o'quv materialini tanlash prinsiplari va mezonlari;

Umumiy o'rta talim maktablarda matematika ta'limi mazmunining manbai tabiiyki, umuminsoniy madaniyat va ijtimoiy tajribaning bir qismi bo'lgan matematik madaniyat hisoblanadi. Maktab matematika fani o'quv mazmuni, fan dasturlari, adabiyotlar va sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlari o'rganildi va tahlil qilindi.

O'rganish va tahlillar asosida Umumiy o'rta ta'lim maktablarda matematika o'quv fanini o'qitilish sifatini yanada oshirishga xizmat qilishga qaratilgan qator vazifalar hamda yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi aniqlandi:

1. Umumiy o'rta talim maktablarda matematika o'qitishning maqsadi Davlat ta'lim standarti(DTS) va o'quv fan dasturidagi maqsadlar bilan cheklangan bo'lib, o'quvchining bilim, ko'nikma va malakasiga qo'yilgan kompetensiya darajasi va ularning xatti-harakatini hisobga olgan holda, dars maqsadlari ishlab chiqilmagan.
2. Umumiy o'rta talim maktablarda o'quv rejalari va fan dasturlari o'quv mazmuniga muvofiq matematika fani o'qitilishini zamon talablari asosida takomillashtirilmagan.
3. Umumiy o'rta talim maktablarda matematika o'qitishning nazariylashtirilgan holda o'qitilishiga ustuvorlik berilgan.
4. Matematika o'qitishdagi dars jarayonida o'quvchilar tafakkurini shakllantirishga va shu orqali ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilgan
5. Umumiy o'rta talim maktablarda matematika ta'limi talablari asosida o'quvchilarning bilishga oid qiziqishlarni, ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishga, o'quvchilarning mantiqiy, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor qaratilgan

Umumiy o'rta talim maktablardada "Matematika" fani bo'yicha o'quv dasturi uchun tavsiya etilgan o'quv mazmuni va ularni o'rganish uchun taqsimlangan soatlar miqdori tahlili shuni ko'rsatadiki.

2021-2022 o'quv yili uchun 9-sinf Informatika darsligida Algoritim mavzusi (6 soat nazariy, 3 soat amliy) ajratilgan ekanligi, 2021-2022 o'quv yili Geografiya fani 5 sinlar uchun Masshatb mavzusi (1 soat nazariy, 1 soat amliy) ajratilgani. 2021-2022 o'quv yili uchun 7 sinf Fizika fanidagi Massa mavzusi (1 soat nazriy 1 soat Labaratoriya ishi), 7-sinf Geometriya fanidagi Uchburchaklar (1 soat nzariy va amaliy mashg'ulotga berlgan). Agar ular o'qitish ketma-ketligi va mavzularga ajratilgan soat hajmiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bunday holatda ikki xil yondashuv kelib chiqadi: ta'lim mazmuni, hajmi va uning



vaqt taqsimotiga mos o'qitish metodikasini taklif etish yoki o'quv mazmuni va ularga ajratilgan vaqt taqsimotini kengaytirish orqali o'qitish metodikasini ishlab chiqilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev SH. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent.: O'zbekiston, 2017. b. 48
2. http://el.tfi.uz/ima_ges/kasbiy_ped_hhp/psy.piter.com Fridman L.M. Psixologo-pedagogicheskie osnovi obucheniya matematike v shkole. Prosveshenie. M 1983. B. 160.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 25 yanvarda qabul qilingan “Umumta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida”gi PF-4513-sonli Farmoni.
4. Abduvalieva D.N. O'quvchilarning matematik tafakkurini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari. “Xalq ta'limi” jurnali. –Toshkent: 2018. -№4., B. 15.